

## **YOSHLARNI BADIY-ESTETIK RIVOJLANISHIDA XALQ MUSIQASIING O‘RNI.**

**Muminova Muqaddas,**  
JDPI Vokal va cholg‘u  
ijrochiligi kafedراسi o‘qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, talabalarni xalq musiqa merosi bo‘yicha puxta bilim va malakaviy tayyorgarlikka ega bo‘lishlari uchun mazkur yo‘nalishdagi o‘quv mvshg‘ulotlarini dars va darsdan tashqari faoliyatlar uzviyligida tashkil etilishini yo‘lga qo‘yish haqida yoritilgan. Bunday vazifalarni amalga oshirilishi bulajak musiqa o‘qituvchilarini maktab faoliyatida o‘quvchi-yoshlarda milliy musiqa merosimizga barqaror qiziqish, qadrlash, o‘rganish va nazariy hamda zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga imkoniyat yaratadi.

**Kalit so‘zlari:** Milliy madaniy meros, musiqa merosi, folklor, maqom, fonoteka, nota yozuvlari.

O‘zbekiston respublikasi mustaqillika erishgan dastlabki kunlardan milliy-madaniy merosni tiklash va uning tarbiyaviy imkoniyatlari yordamida kishilarning, birinchi navbatda yoshlarning milliy-ma‘naviy tafakkurini shakllantirshga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratildi. Shunga ko‘ra jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotining barcha jabhalarida bo‘lgani kabi ta‘limning barcha bo‘g‘inlarida musiqa ta‘limi va tarbiyasining mazmuni ham tubdan yangilandi. O‘zbek xalqining boy musiqa merosi o‘zida xalq ruhiyatini, tarixi, o‘ziga xos turmush tarzi, urf-odat va an‘analarini, orzu-intilishlarini, shuningdek. xalq pedagogikasining eng ilg‘or g‘oyalarni ifoda etishi bilan barkamol avlodni milliy g‘oya va mafkura ruhida tarbiyalashda eng ta‘sirchan va qimmatli omillardan hisoblanadi.

Milliy madaniy meros va ular mazmunida mujassam bo‘lgan g‘oyalarning jamiyat taraqqiyoti va shaxs kaolotidagi ahamiyati haqida Prezidentimiz I.Karimov shunday degan edi: «Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag‘ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo‘lida kun ko‘rishga yo‘l qo‘ymaydi, fojealar

vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi».

Barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari ham ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchi-yoshlarni xalqimizning milliy musiqa merosi bilan chuqur tanishtirib borish, shu orqali ularda milliy o'zlikni anglash hissini shakllantirish, rivojlantirish, milliy qadriyatlarga ongli munosabat, ularni o'rganish, qadrlash, asrab-avaylash va vorislik qilaolish tuyg'ularini o'ctirishda bebaho vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli xalqimizning milliy musiqa merosi bilan yosh alodni maqsadli va tizimli ravishda tanishtirib, ularni ma'naviyatiga singdirib borish bugungi kunda musiqa ta'limi sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog-o'qituvchilar va murabbiylar oldiga muayyan vazifalarni qo'ymoqda. Ana shunday vazifalar sirasiga musiqa ta'limida o'zbek xalq musiqa merosini o'rganishga ustuvor ahamiyat berish, oliy musiqiy ta'limda bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash mazmunini «An'anaviy xalq musiqasi va maqom asoslari» hamda «O'zbek mumtoz qo'shiqchiligi» fanlari bo'yicha tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy kuy-qo'shiqlarni o'rganish, ijro etish, ularning ijrochilik shakllari, an'analari, o'ziga xos mahalliy uslublarini yaxshi farqlay olish, asarlar mazmunini teran anglash, yengil-yelpi, chet el «ommaviy musiqa»si ta'sirida kirib kelayotgan badiiy sayoz, axloqsizlik, behayolikni targ'ib etuvchi musiqalarga qarshi immunitetni shakllantirish kabilarni kiritish mumkin.

Bizning umumta'lim maktablarida olib borgan kuzatuvlarimiz ham yuqoridagi fikrlarni naqadar hayotiy va haqqoniyligini tasdiqladi. Bir qator umumta'lim maktablari o'quvchilariga berilgan savollar aksariyat o'quvchilarni o'zbek milliy merosining eng nodir, mumtoz namunalari bo'lgan «Munojot», «Dilxiroj», «Tanovor», «Lazgi», turkumli mumtoz ashulalar hisoblanmish «Bayot»lar, «Dugoh»lar, «Ushshoq»lar, «Segoh»lar, «Suvora»lar, «Tanovor»lar haqida tushuncha va tasavvurlari nihoyatda qoniqarsiz ekanligini va ularni tinglash, o'rganishga bo'lgan qiziqishlari haqidagi javoblari ham ayanchliligini ko'rsatdi. Buning asosiy sababi musiqa ta'limi uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchilarni xalq musiqa merosi bo'yicha malakaviy tayyorgarliklari «Davlat

ta'lim standartlari» darajasida emasligini hamda nazariy bilim va amaliy ijrochilik malakalari ham kutilgan darajada emasligidan dalolat beradi. Bu esa birinchi navbatda oliy pedagogik ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitishni milliy asoslarini takomillashtirish, xususan, o'zbek milliy musiqa merosining folklor, mumtoz va maqom yo'nalishlari bo'yicha chuqur nazariy, amaliy bilim va malakalarga ega bo'lgan kadrlar qilib yetishtirish lozimligini ko'rsatadi.

Mumtoz ashulalar-bu xalq musiqa ijodiyotining, xalq badiiyatining eng yuksak mahsulidir. Ular avlodlar almashinuvi jarayonida sayqallashib, teranlashib, mukammallashib, umrboqiylik kasb etib, o'ziga xos nola, qochirim, avj, keng diapozon, ovozni jilolantirish, tovush hosil qilish kabi uslublar talqini bilan yuksak ijrochilik mahorati va malakalarini talab qiladi.

Mumtoz kuy-qo'shiqlarni yuksak badiiy ijod namunasi ekanligi va folklor asarlaridan farqi ohang-kuy tuzilmasining rivojlanganlik shakl-xususiyatga egaligi, yuksak mahorat va qalb egasining ijod mahsuli ekanligi, ashula matnining ham shunday ijod namunasi ekanligi, qolaversa, matn bilan kuy-ohangning bir-biriga mutanosibligi va nihoyat asarni yuqori malakaga, tajriba va mahoratga ega san'atkorlar tomonidan ijro etilishida ko'rinadi. Bunday xususiyatlar musiqa ta'limini boshlang'ich bo'g'inlaridan o'quvchi-yoshlarni chuqur va har tomonlama puxta tanishtirib borish zaruratini vujudga keltiradi.

Barcha fanlarda bo'lgani kabi musiqa ta'limining sifat va samaradorligi ko'p jihatdan oliy pedagogik ta'limda musiqa o'qituvchilar tayyorlash tizimini qay darajada tashkil etilganligi va bo'lajak musiqa o'qituvchilarini xalq musiqa ijodiyoti bo'yicha malakaviy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishi tabiiy. Shunday ekan:

- pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi «musiqiy ta'lim» yo'nalishlarida talabalarni «An'anaviy xalq musiqasi va maqom asoslari» hamda «O'zbek mumtoz qo'shiqchiligi» fanlarini o'qitish jarayonida mumtoz va maqom san'atining o'ziga xos ijro yo'llari, an'analari, mahalliy uslublari (Surxondaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Farg'ona-Toshkent, Xorazm) bo'yicha puxta bilim va malakalarni egallash imkoniyatlarini yaratish;

- o'zbek xalq folklor, mumtoz va maqom namunalari umumta'lim maktablarining o'quv dasturi va darsliklari materiallari bo'yicha zarur o'quv manbalari, metodik qo'llanmalar, fonoteka, nota yozuvlari, ko'rgazmali va texnik vositalar bilan ta'minlash;

- xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom namunalari, ular haqidagi nazariy ma'lumotlarni o'rgatishning samarali ish usullari, ya'ni, o'ziga xos metodik tizimini yaratish;

- ilg'or tajribalarni ommalashtirish, «An'anaviy xalq musiqasi va maqom asoslari» hamda «O'zbek mumtoz qo'shiqchiligi» fanlarini o'qitishni 1-4-bosqichlarda tizimli yo'lga qo'yish va shunga ko'ra o'quv dasturlari va darsliklarni yangi avlodini yaratish;

- talabalarni xalq musiqa merosi bo'yicha puxta bilim va malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lishlari uchun mazkur yo'nalishdagi o'quv mashg'ulotlarini dars va darsdan tashqari faoliyatlar uzviyligida tashkil etilishini yo'lga qo'yish maqadga muvofiq bo'ladi. Bunday vazifaarni amalga oshirilishi bulajak musiqa o'qituvchilarini maktab faoliyatida o'quvchi-yoshlarda milliy musiqa merosimizga barqaror qiziqish, qadrlash, o'rganish va nazariy hamda zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga imkoniyat yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI:**

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent.: - O'zbekiston, 2000. 43-bet.
2. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch – Toshkent.: -Ma'naviyat, 2008. 43-bet.
3. Umumiy o'rta ta'limning musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. Toshkent, - XTV, 1995 yil.
4. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalarlash. – Toshkent,- Fan, 2009 y.
5. N. Hasnova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni. Aktualnyy vyzivni sovremennoy nauki IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
6. hasanova, navbahor. (2020). Methods And Ways To Develop The Musical Feelings Of Students In TTTE Lessons Of Music Euiture. *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI*, 1(42). izvlecheno ot [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/5579](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579)

7. Umumiy o'rta ta'limning musiqa fani bo'yicha Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, ta'lim taraqqiyoti, 6-7 maxsus sonlar.  
Khasanova, Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15.  
[:https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15](https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15)
8. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*, 29 (08),  
[Http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558) dan olingan
9. E. Abdukarimova. Ilm ham jamiyat Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti "Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim". 2019 (№1) ISSN 2010-720X
10. Elnoz Ismatillayevna Abdukarimova Aktualnye vyzovy sovremennoy nauki. "Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqa merosi qudratli tarbiya vositasi" *iscience* 2017 yil
11. Hasanova, N. K. (2021). Possibilities of music education and upbringing in the formation of personal maturity. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 08 (100),  
<http://s-o-i.org/1.1/TAS-08-100-79> Doi:  
<https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.08.100.79>
12. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
13. Xolmirzayev, O. (2021). YOSHLAR KAMOLOTI VA MUSIQA: YOSHLAR KAMOLOTI VA MUSIQA. *Jurnal doshkolnogo obrazovaniya*, 3(3). izvlecheno ot <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2103>